JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 5, Issue 1, November 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI JORIY ETILISHIDA XORIJIY TAJRIBANI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Ahmatbekova Nodira Adhamjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ИНФОРМАЦИЯ О СТАТЬЕ

ИСТОРИЯ СТАТЬИ:
Received:18.11.2026
Revised: 19.11.2026
Accepted:20.11.2026

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
islom banki, shariat boshqaruvi, ikki tomonlama bank tizimi, AAOIFI, IFSB, Malayziya, BAA, huquqiy tartibga solish.

АННОТАЦИЯ:

Maqolada O‘zbekistonda 2026-yilda qabul qilingan islomiy bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunni amalda joriy etish jarayonida Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) tajribasidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Uch mamlakatning shariat boshqaruvi (Shariah governance) modellari qiyosiy-huquqiy metod asosida o‘rganilib, xalqaro standartlarning huquqiy maqomi, shariat kengashlarining vakolatlari, institutlar ichidagi shariat nazorati va qonunchilikni tizimlashtirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijasida ikkala xorijiy modelning markaziy elementi shariat masalalarida yagona markazlashgan organ va uning qarorlarining aniq yuridik kuchi ekanligi aniqlandi. O‘zbekiston uchun Islom moliya kengashi qarorlarining huquqiy maqomini belgilash, ichki shariat nazorati bo‘yicha alohida standart qabul qilish, xalqaro standartlarning milliy huquqdagi o‘rnini aniqlashtirish hamda sud amaliyotining barqarorligini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

1. Kirish

Islom moliyasi foiz (*ribo*), haddan tashqari noaniqlik (*g‘arar*) va qimor (*maysir*) taqiqiga asoslangan bo‘lib, foiz o‘rniga savdo, ijara va sheriklikka asoslangan shartnomalarni qo‘llash orqali aniq mahsulot ustida amalga oshiriladi. Ularning eng keng tarqalganlari *murabaha* (ustama bilan savdo), *ijara*, *mudaraba* va *musharaka* (foyda va xavfni bo‘lishishga asoslangan sheriklik) hamda *sukuk* (islomiy obligatsiya) hisoblanadi. Jahon amaliyotida bu yo‘nalish yirik moliya segmentiga aylangan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda uzoq vaqt huquqiy tartibga solinmagan holda qolib keldi. 2026-yil 27-martda islom bank tizimini joriy etishga ruxsat beruvchi qonun — «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va

o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonun imzolandi va u 2026-yil 29-iyunda kuchga kirdi[49]. Qonun Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, «Markaziy bank to‘g‘risida»gi hamda «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritdi. Natijada mamlakatda an’anaviy banklar bilan bir qatorda islom banklari ham faoliyat yuritadigan ikki tomonlama bank tizimi shakllandi. Qonunga ko‘ra Markaziy bank islom moliyasi standartlarini tasdiqlash vakolatiga ega bo‘ldi va uning huzurida Islom moliya kengashi tashkil etilishi belgilandi. O‘zbekiston islom moliyasini rivojlantirish va tartibga solish maqsadida 2025-yilda Islom moliyaviy xizmatlar kengashiga (IFSB), 2026-yilda esa Islom moliya institutlari buxgalteriya hisobi va audit tashkilotiga (AAOIFI) a’zo bo‘ldi.

Shunga qaramay, ushbu qonunning qabul qilinishigina barcha masalalarni hal etmaydi. Chunki, islomiy moliyaga oid nizolarda sudlar islomiy shartnomalarning haqiqiyligi va ijrosini baholashda maxsus standartlar yoki an’anaviy fuqarolik huquqi doktrinalariga ustuvorlik berilishi kerakligiga hali oydinlik kiritilmagan. Bundan tashqari, AAOIFI va IFSB standartlari xalqaro darajada tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, ularning milliy huquq tizimidagi yuridik kuchi har bir davlatda, milliy qonunchilik tizimiga ko‘ra alohida belgilanadi. Bu holat sohada uzoq tajribaga ega bo‘lgan mamlakatlar yechimlarini o‘rganishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Islom moliyasini joriy etishdan kutilayotgan natijalar iqtisodiy jihatdan ham muhim. Iqtisodchilar, O‘zbekiston fuqarolarining ko‘pchiligi islom diniga e’tiqod qilishidan va ayrimlarining banklardan foydalanmasligidan kelib chiqib, uni norasmiy iqtisodiyotdagi mablag‘larni rasmiy bank tizimiga jalb qilish vositasi sifatida ko‘radi[50]. Biroq, iqtisodiy samarani faqat bunga bog‘liq deb bo‘lmaydi: investor ham, mijoz ham shartnomaning qanday baholanishini va nizo yuzaga kelganda, uni hal etish tartibi ham muhim hisoblanadi. Aynan shu sababli huquqiy tartibga solishning sifati islom moliyasining muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biriga aylanadi.

Malaziyaning moliya sohasidagi qonunchiligining shariatga muvofiqlik talablari yetarlicha tadqiq qilingan[51]. O‘zbekistonda esa tegishli qonun yaqinda kuchga kirgani sababli, uning xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlili bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar endi shakllanib bormoqda. Mazkur maqola manashu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Malayziya va BAA islom moliyasi bo‘yicha yaxshi natijalarga erishgan yetakchi davlatlar hisoblanadi. Malayziya islom bankingini 1983-yildan boshlab alohida qonun bilan tartibga solib kelgan

[49] O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2026-yil 27-martda imzolangan, 2026-yil 29-iyunda kuchga kirgan. URL: https://lex.uz/docs/-8099403#-8100809

[50] Kun.uz. Islamic financing in Uzbekistan hits UZS 22 billion in early 2026. 2026-yil 16-iyun. URL: https://kun.uz

[51] Laldin M.A., Furqani H. Islamic Financial Services Act (IFSA) 2013 and the Shari’ah-compliance requirement of the Islamic finance industry in Malaysia // ISRA International Journal of Islamic Finance. 2018. Vol. 10, No. 1. P. 94–101. DOI: 10.1108/IJIF-12-2017-0052

va ikki tomonlama bank tizimining eng rivojlangan namunalaridan biriga ega[52]. Shuningdek, mamlakat banklari mablag‘larining 44% izini islom moliyasi orqali investitsiya qilingan mablag‘lar tashkil etadi. BAAda esa, 1975-yilda Dubay islom banki tashkil etilgan. Ikkala mamlakatda ham shariat masalalari bo‘yicha vakolatli organ mavjud, biroq ularning tuzilishi va qarorlarining huquqiy kuchi bilan farqlanadi.

Tadqiqot obyekti islom bankingi sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, predmeti esa ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalari, shariat boshqaruvi mexanizmlari va xorijiy tajribadir. Tadqiqotning maqsadi Malayziya va BAA modellarini tahlil qilib, O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan yechimlarni aniqlashdan iborat. Maqolada quyidagi savolga javob izlanadi: xorijiy modellarning qaysi elementlari O‘zbekistonning amaldagi qonunchiligi va huquq tizimiga moslashishi mumkin? Maqsadga erishish uchun uchta vazifa qo‘yildi: uch mamlakatning shariat boshqaruvi modellarini tavsiflash, ularni asosiy mezonlar bo‘yicha taqqoslash hamda O‘zbekiston uchun asoslangan takliflar ishlab chiqish.

2. Metodlar

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy metod asosiy o‘rinni egalladi. O‘zbekiston, Malayziya va BAA qonunchiligi to‘rtta mezon bo‘yicha taqqoslandi: 1) tartibga solishning qonuniy asosi, 2) shariat masalalari bo‘yicha vakolatli organ, 3) shu organ qarorlarining huquqiy kuchi va 4) institutlar ichidagi shariat nazorati. Bu mezonlar tanlanishining sababi shundaki, aynan ular islom moliyasining huquqiy ishonchliligini va kuchini belgilaydi. Normativ hujjatlarning mazmunini aniqlashda formal-yuridik metod, ma’lumotlarni umumlashtirishda tahlil va sintez, takliflarni asoslashda mantiqiy metod qo‘llanildi.

Tadqiqot manbalari sifatida Malayziyaning 2013-yilgi Islom moliyaviy xizmatlari to‘g‘risidagi qonuni (Act 759)[53], BAAning 2018-yildagi 14-sonli federal qonuni[54] va BAA Markaziy bankining shariat boshqaruvi standarti[55], shuningdek O‘zbekistonning 2026-yilgi islom bankingi to‘g‘risidagi qonuni hamda yuqoridagilarga aloqador huquqiy sharhlar, ilmiy maqolalar va rasmiy axborotlardan foydalanildi.

3. Natijalar

3.1. Malayziya modeli. Malayziyada islom va an’anaviy banklar parallel faoliyat yuritadi va ikkalasi ham Markaziy bank (*Bank Negara Malaysia*) nazorati ostidagi yagona

[52] Oxford Business Group. Malaysia 2014 Report: Regulating success. 2014. URL: https://oxfordbusinessgroup.com
[53] Laws of Malaysia. Islamic Financial Services Act 2013 (Act 759). Enacted 18 March 2013; effective 30 June 2013.
[54] United Arab Emirates. Federal Decretal Law No. (14) of 2018 Regarding the Central Bank & Organization of Financial Institutions and Activities. 2018.
[55] Central Bank of the UAE (CBUAE Rulebook). Standard re Shari’ah Governance for Islamic Financial Institutions. 2020. URL: https://rulebook.centralbank.ae

tartibga solish tizimida ishlaydi[56]. Tizimning zamonaviy huquqiy asosi 2013-yil 30-iyunda kuchga kirgan Islom moliyaviy xizmatlari to‘g‘risidagi qonun (Act 759) bo‘lib, u 1983-yilgi Islom banklari to‘g‘risidagi va 1984-yilgi Takaful to‘g‘risidagi qonunlarni bekor qildi[57]. Qonunda shariat boshqaruvi, shariat qo‘mitalarini tayinlash, shariatga mos kelmaslik holatlari haqida xabar berish, javobgarlik va jarimalar kabi masalalar tartibga solingan. Malayziya tajribasining markaziy elementi Markaziy bank huzuridagi Shariat maslahat kengashi (*Shariah Advisory Council*) bo‘lib, u 1997-yilda tashkil etilgan, islomiy mahsulotlar bo‘yicha Markaziy bankka maslahat beradi va yangi mahsulotlarni baholaydi[58]. Ilmiy adabiyotda bu kengash shariat qarorlarining huquqiy aniqligi, real moliyaviy maqsadlarning aniqligi va barqarorligini ta’minlovchi institut sifatida tavsiflanadi. Muhim jihati shundaki, kengash qarorlari Malayziyada qonun bilan majburiy kuchga ega: Markaziy bank to‘g‘risidagi 2009-yilgi qonunning 56–58-moddalariga ko‘ra, kengash qarori u murojaat qilingan islom moliya institutlari hamda murojaat qilgan sud yoki hakamlik uchun majburiy bo‘ladi va institutning o‘z shariat qo‘mitasi qaroridan ustun turadi. Shuningdek, Malayziyada ikkita milliy shariat kengashi mavjud — biri Markaziy bankda, ikkinchisi esa, qimmatli qog‘ozlar komissiyasida. Shuningdek, an’anaviy banklar ham Markaziy bankning yozma ruxsati va shariat boshqaruvi talablariga rioya qilgan holda islom banki faoliyatini yuritishi mumkin («islomiy oyna» modeli). Shu tariqa Malayziya modelida shariat boshqaruvi qonunda, Markaziy bank huzuridagi kengashda va institutlarning ichki qo‘mitalarida mustahkamlangan. Model uzoq yillar davomida bosqichma-bosqich shakllangan: 1983-yilda islom banklari to‘g‘risidagi qonun, 1997-yilda Shariat maslahat kengashi, 2013-yilda esa yagona zamonaviy qonun qabul qilindi. Demak, O‘zbekiston bu sohani tartibga solish tizimi endi rivojlanayotganligidan kelib chiqib, xorijiy davlatlarning amaliyot to‘planishi bilan takomillashib brogan tajribalaridan foydalanishimiz zarurdir.

3.2. BAA modeli. BAAda islom moliyasini tartibga solish 2018-yildagi 14-sonli federal qonun bilan yagona tizimga keltirildi[59]. Qonun 1980-yilgi an’anaviy bank faoliyati haqidagi qonunni hamda 1985-yilda islom banklarini alohida tartibga solgan 6-sonli federal qonunni bekor qilib, ikkala sohani bitta qonun doirasiga birlashtirdi. BAA modelining markaziy

[56] Oxford Business Group. Malaysia 2014 Report: Regulating success. 2014. URL: https://oxfordbusinessgroup.com
[57] Laws of Malaysia. Islamic Financial Services Act 2013 (Act 759). Enacted 18 March 2013; effective 30 June 2013.
[58] Laldin M.A., Furqani H. Islamic Financial Services Act (IFSA) 2013 and the Shari’ah-compliance requirement of the Islamic finance industry in Malaysia // ISRA International Journal of Islamic Finance. 2018. Vol. 10, No. 1. P. 94–101. DOI: 10.1108/IJIF-12-2017-0052
[59] United Arab Emirates. Federal Decretal Law No. (14) of 2018 Regarding the Central Bank & Organization of Financial Institutions and Activities. 2018.

elementi Markaziy bank tarkibidagi Oliy shariat kengashidir (*Higher Shari'ah Authority*)[60]. U islom moliya institutlari uchun qoidalar va standartlarni belgilaydi hamda ularning ichki shariat nazorat qo‘mitalari faoliyatini nazorat qiladi. Kengashning qarorlari ichki shariat nazorat qo‘mitalari uchun majburiy bo‘lib, ichki qo‘mita a'zolari Oliy shariat kengashi tasdig‘ini talab qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, kengash qonun qabul qilinishidan oldin, 2016-yilda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tuzilgan, 2018-yilgi qonun esa uning maqomini tasdiqlab, vakolatlarini batafsil belgilagan[61].

Markaziy bank 2020-yilda islom moliya institutlari uchun shariat boshqaruvi standartini ham qabul qildi[62]. Unga ko‘ra institutlar malakali ichki shariat nazorat qo‘mitasini tayinlashi va ichki shariat nazorati bo‘limini tashkil etishi shart. Shu tariqa BAA modelida shariat boshqaruvi uch bosqichli tuzilma ko‘rinishida shakllangan: qonun, Oliy shariat kengashi qarorlari va institutlar ichidagi shariat nazorati. Bu tuzilma BAA modelining kuchli tomonini ko‘rsatadi: shariat masalalari bo‘yicha javobgarlik bir necha darajaga taqsimlangan, ammo har bir daraja bir-biri bilan bog‘langan. Bu institutlar o‘rtasida shariat talqini bo‘yicha qarama-qarshiliklarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. O‘zbekiston uchun bu tajribaning ahamiyati shundaki, ichki nazorat talablari qonun bilan bog‘langan taqdirda, bank xodimlari va mijozlar shariatga muvofiqlik uchun kim javob berishini oldindan bilishadi, nizo yuzaga kelganda esa sud va nazorat organi murojaat qilishi mumkin bo‘lgan aniq huquqiy normalar manbai mavjud bo‘ladi.

3.3. O‘zbekiston modeli. O‘zbekiston qonuni ikki tomonlama bank tizimini joriy etdi[63]. Unga muvofiq faqat islom litsenziyasi asosida ishlovchi islom banklari hamda an'anaviy banklar qoshidagi «islomiy banklar» faoliyat yuritishi mumkin. Qonun an'anaviy bank faoliyatiga qo‘yiladigan tijorat faoliyati va ulushli ishtirok etish taqiqlaridan islom moliyasi operatsiyalari uchun istisnolar belgilaydi, jumladan *murabaha*, *musharaka* va *sukuk* kabi operatsiyalarni ruxsat etadi. Markaziy bank qonun kuchga kirganidan keyin Islom moliya kengashini tuzdi, u banklar, mikromoliya tashkilotlari kabi institutlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Amaliy rejalar ham belgilangan: 2026-yilda kamida bitta tijorat bankida islomiy oyna ochish va 2026–2030-yillarda ikkita to‘liq islom banki tashkil etish maqsad qilinga.

[60] Clifford Chance. The New UAE Banking Law and its impact on Islamic financing in the UAE. 2018-yil 22-noyabr. URL: https://www.cliffordchance.com; Central Bank of the UAE. Higher Shari'ah Authority. URL: https://www.centralbank.ae

[61] CMS Law-Now. The new UAE Central Bank law. 2019. URL: https://cms-lawnow.com

[62] Central Bank of the UAE (CBUAE Rulebook). Standard re Shari'ah Governance for Islamic Financial Institutions. 2020. URL: https://rulebook.centralbank.ae

[63] O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni (2026-yil 27-martda imzolangan, 2026-yil 29-iyunda kuchga kirgan); KPMG. Uzbekistan: Law introducing Islamic banking enacted. 2026-yil 26-may. URL: https://kpmg.com

Markaziy bank IFSB ko‘magida 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan milliy islom moliyasi yo‘l xaritasini ham tayyorlamoqda[64]. Qonun kuchga kirganiga endi bir necha oy bo‘lgani sababli, uning sud amaliyotida qo‘llanilishi hali shakllanmagan. Qonun hozirgi bosqichda tizimning faoliyat turlari, litsenziya turlari va nazorat organi kabi masalalarni tartibga soladi. Shariat boshqaruvining tafsilotlari, jumladan standartlarni tasdiqlash tartibi, kengash qarorlarining kuchi va institutlar ichidagi nazorat talablari Markaziy bankning keyingi hujjatlari bilan to‘ldirilishi lozim. Bu holat Malayziya va BAA misolida qo‘llanilgan yechimlarni o‘rganish uchun amaliy imkoniyat yaratadi.

3.4. Shariat boshqaruvining uch darajasi. Uch mamlakat tajribasini tahlil qilish uchun shariat boshqaruvini uch darajaga ajratish qulay: 1) qonunchilik darajasi, 2) milliy darajadagi vakolatli shariat organi va 3) institutlar ichidagi shariat nazorati. Qonunchilik darajasida davlat islom moliyasini huquqiy jihatdan tan oladi, litsenziyalash tartibi va umumiy talablarni belgilaydi. Milliy daraja shariat savollari bo‘yicha yagona izoh va standartlarni ta’minlaydi, bu esa bank va mijozlar uchun huquqiy bashorat qilinuvchanlikni oshiradi. Institut darajasida har bir bank o‘z faoliyatining shariatga muvofiqligini ichki qo‘mita va nazorat bo‘limi orqali ta’minlaydi.

Malayziyada ikkinchi daraja, ya’ni Shariat maslahat kengashi eng rivojlangan, BAAda esa uchala daraja ham qonun va standartlarda izchil bog‘langan. O‘zbekistonda birinchi daraja 2026-yilgi qonun bilan yaratildi, ikkinchi daraja Islom moliya kengashi sifatida shakllanmoqda, uchinchi darajaning (ichki nazorat) tafsilotlari esa Markaziy bank hujjatlari bilan to‘ldirilishi lozim.

3.5. Qiyosiy tahlil. Uch mamlakat modeli asosiy mezonlar bo‘yicha 1-jadvalda taqqoslangan.

1-jadval. Uch mamlakatda islom moliyasini huquqiy tartibga solish modellarining qiyosiy tahlili (muallif tomonidan tuzilgan)

Mezon	Malayziya	BAA	O‘zbekiston
Tizim turi	Ikki tomonlama	Ikki tomonlama	Ikki tomonlama (2026)
Asosiy qonun	2013-yilgi Islom moliyaviy xizmatlari to‘g‘risidagi qonun (Act 759)	2018-yildagi 14-sonli federal qonun	2026-yil. O‘RQ-1126-son
Shariat organi	Markaziy bank huzuridagi Shariat	Markaziy bank tarkibidagi Oliy	Markaziy bank huzuridagi Islomiy

[64] Times of Central Asia. Uzbekistan Establishes Islamic Finance Council as New Banking Law Takes Effect. 2026. URL: https://timesca.com

	maslahat kengashi	shariat kengashi	moliya kengashi
Organ qarorlarining huquqiy kuchi	Majburiy: institutlar, sud va hakamlar uchun; ichki qo‘mita qarorlaridan ustun (2009-yilgi qonun, 56–58-moddalar)	Ichki shariat nazorat qo‘mitalari uchun majburiy	Islomiy moliya kengashi bankdagi islomiy bank faoliyati islomiy moliya standartlariga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ hisoblanadi.
Institutlardagi ichki nazorat	Shariat qo‘mitasi	Majburiy ichki shariat nazorat qo‘mitasi va nazorat bo‘limi (2020-yilgi standart)	Qonun va Markaziy bank hujjatlari asosida shakllanmoqda
Islomiy «oyna»	Ruxsat etilgan	Ruxsat etilgan	Ruxsat etilgan

Jadvaldan ko‘rinadiki, uchala davlat ham ikki tomonlama tizimni tanlagan va ikkala xorijiy davlatda shariat masalalari Markaziy bank huzuridagi yoki uning tarkibidagi maxsus organga yuklangan. Malayziyada kengash qarorlarining majburiyligi 2009-yilgi Markaziy bank to‘g‘risidagi qonunda belgilangan. Shu bilan birga, BAA modelida bu organ qarorlarining ichki qo‘mitalar uchun majburiyligi qonun va standartlarda aniq belgilangan, ichki shariat nazorati esa alohida standart bilan tartibga solingan. O‘zbekiston qonunida Islom moliya kengashi qarorlarining huquqiy kuchi masalasi esa rasmiy matn asosida alohida o‘rganilishi lozim. Islomiy oyna modeli uchala mamlakatda ruxsat etilgani an’anaviy banklarga islom mahsulotlarini bosqichma-bosqich joriy etish imkonini beradi, bu esa tizimni to‘liq islom banklari tashkil etilgunga qadar sinovdan o‘tkazishning amaliy yo‘lidir. Shu bois oynalar faoliyatini tartibga solish ham alohida e’tiborga loyiq.

4. Muhokama

Qiyosiy tahlil natijalari O‘zbekistonda islom bankini huquqiy asoslarini mustahkamlash uchun to‘rtta asosiy yo‘nalishda konseptual xulosalar chiqarish imkonini beradi.

4.1. Markaziy shariat organi qarorlarining yuridik kuchi va standartlashtirish. Ikkala xorijiy model ham shariat masalalarida yagona markazlashgan organga tayanadi: Malayziyada bunday organ qarorlari qonunga ko‘ra majburiy kuchga ega bo‘lib, huquqiy aniqlikni ta’minlasa, BAAda uning qarorlari ichki qo‘mitalar uchun majburiydir. O‘zbekistonda Markaziy bank huzurida Islom moliya kengashi tuzilgan va Markaziy

bankka standartlarni tasdiqlash vakolati berilgan. Biroq kengashning maslahat-muvofiqlashtiruvchi funksiyasi bilan Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjat sifatida standartlarni tasdiqlash vakolatini aniq chegaralash lozim. Agar Islom moliya kengashi qarorlarining huquqiy kuchi (majburiymi yoki tavsiyaviymi) va sudlar tomonidan inobatga olinish tartibi aniq belgilanmasa, nizo yuzaga kelganda sud shartnomani faqat fuqarolik huquqining umumiy qoidalari asosida baholashi ehtimoli ortadi. Shuningdek, AAOIFI va IFSB standartlari o‘z-o‘zidan majburiy bo‘lmagani sababli, ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va Markaziy bank tomonidan tasdiqlash tartibini ko‘rib chiqish zarur.

4.2. Ichki shariat nazorati mexanizmi va kadrlar salohiyati. BAA tajribasi islom moliya institutlarida ichki shariat nazorati mexanizmini aniq belgilashning ahamiyatini ko‘rsatadi: qo‘mita a’zolariga qo‘yiladigan malaka talablari, ularni Markaziy bank yoki kengash tomonidan tasdiqlash tartibi va ichki nazorat bo‘limi faoliyati. O‘zbekistonda bu talablarni Markaziy bankning alohida standarti shaklida qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki shariatga muvofiqlik uchun javobgarlik institutning o‘zida aniq shaxs va bo‘linmalarga yuklatilishi kerak. Shu bilan birga, xorijiy modellarni o‘z holicha ko‘chirib bo‘lmaydi, Malayziya va BAAda tizim ko‘p yillik amaliyot va mutaxassislar bazasiga tayanadi. O‘zbekistonda esa sudyalar, advokatlar va bank yuristlari islom moliyasi huquqi bo‘yicha tizimli malaka oshirishlari lozim.

4.3. Normalarni tizimlashtirish va sud amaliyoti barqarorligi. Malayziya va BAA tajribasi tartibga solishni yagona qonun doirasida birlashtirish tendensiyasini ko‘rsatadi: ikkala davlat ham islom bankingiga oid ilgari alohida qonunlarni bekor qilib, yagona qonunga o‘tgan. O‘zbekiston esa mavjud kodeks va qonunlarga o‘zgartirishlar kiritish yo‘lini tanladi. Bu yondashuvning afzalligi mavjud huquq tizimiga tezroq moslashish bo‘lsa, kamchiligi normalar tarqoqligi xavfidir: qoidalar Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi va bank qonunlarida alohida joylashadi. Shu sababli kelgusida normalarni tizimlashtirish (kodifikatsiya) masalasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, islomiy shartnomalarning fuqarolik huquqidagi tabiatini (masalan, *murabaha* tuzilmasida ikki ketma-ket oldi-sotdi shartnomasi va mulk xavfining o‘tishini) Oliy sud Plenumi qarori yoki rasmiy sharhlar orqali izohlash sudlar ularni yashirin foizli kredit sifatida talqin qilishining oldini oladi.

4.4. Soliq rejimi va teng raqobat muhiti. 2026-yilgi qonun islom moliyasi operatsiyalari uchun alohida qo‘shilgan qiymat solig‘i va daromad solig‘i qoidalarini joriy etdi. Bu muhim qadam, chunki *murabaha* kabi tuzilmalarda tovar bir necha marta o‘tadi va maxsus soliq rejimi bo‘lmasa, islom mahsulotlari an’anaviy kreditga nisbatan qimmatlashishi mumkin. Shu bilan birga, ikki tomonlama tizimda huquqiy tartibga solish islom banklarini sun’iy imtiyozli emas, an’anaviy banklar bilan teng raqobat sharoitida ishlashga yo‘naltirishi, shariat talablarini bajarish xarajatlari esa ortiqcha ma’muriy yuk bo‘lib qolmasligini ta’minlashi lozim. Markaziy bankning 2026–2030-yillarga

mo‘ljallangan yo‘l xaritasi doirasida takliflarni ustuvorlik bo‘yicha amalga oshirish mumkin: birinchi navbatda Islom moliya kengashi qarorlarining huquqiy kuchi va standartlarni tasdiqlash tartibi, ikkinchi navbatda ichki shariat nazorati standarti va kadrlar tayyorlash, uchinchi navbatda esa normalarni tizimlashtirish masalasi hal etilishi maqsadga muvofiq. Tadqiqotning cheklovi shundaki, qonun yaqinda kuchga kirgani bois maqola asosan qiyosiy-huquqiy tahlil, birlamchi normativ hujjatlar hamda dastlabki huquqiy sharhlarga tayanadi. Keyingi tadqiqotlarda Islom moliya kengashining amaliy qarorlari va shakllanayotgan sud amaliyoti materiallari bilan chuqurroq ishlash maqsad qilinadi.

5. Xulosa

Malayziya va BAA tajribasi islom moliyasini samarali tartibga solishda ikki element muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi: shariat masalalarida yagona markaziy organ va shariat boshqaruvini qonunchilikda aniq belgilash. O‘zbekistonning 2026-yilgi qonuni ikki tomonlama bank tizimi va Islom moliya kengashi orqali bu yo‘nalishda muhim qadam qo‘ydi. Shu bilan birga, xorijiy tajribani mexanik ko‘chirish emas, uni O‘zbekistonning fuqarolik huquqi tizimi va amaldagi qonunchiligiga moslab qo‘llash maqsadga muvofiq. Tadqiqot natijalari asosida tizimni mustahkamlash uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi: 1) Islom moliya kengashi qarorlarining huquqiy kuchini (majburiy yoki tavsiyaviy maqomini) va ularning sudlar tomonidan qo‘llanilish tartibini normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilash; 2) Islom moliya institutlarida ichki shariat nazorati qo‘mitalari va bo‘linmalari faoliyati bo‘yicha Markaziy bankning alohida standartini qabul qilish; 3) AAOIFI va IFSB standartlarining milliy huquqdagi maqomini hamda ularni Markaziy bank tomonidan tasdiqlash va e’lon qilish tartibini aniqlashtirish; 4) Sudyalar, advokatlar, yuristlar va bank xodimlarini islom moliyasi huquqi bo‘yicha tayyorlash hamda malakasini oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish; 5) Kelgusida tarqoq joylashgan islom moliyasi normalarini tizimlashtirish (kodifikatsiya qilish) imkoniyatini o‘rganish.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, O‘zbekistonda islom bankingi huquqiy aniqlik, investorlar va mijozlar ishonchi hamda sud amaliyoti bir xilligi asosida rivojlanishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida Islom moliya kengashi qarorlarining sud amaliyotidagi o‘rnini va islomiy shartnomalar bo‘yicha dastlabki nizolarni tahlil qilish ko‘rsatilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida». 2026-yil 27-martda imzolangan, 2026-yil 29-iyunda kuchga kirgan.

2. Laws of Malaysia. Islamic Financial Services Act 2013 (Act 759) [Elektron manba]. – Enacted 18 March 2013; effective 30 June 2013.

3. United Arab Emirates. Federal Decretal Law No. (14) of 2018 Regarding the Central Bank & Organization of Financial Institutions and Activities [Elektron manba]. – 2018.

4. Central Bank of the UAE (CBUAE Rulebook). Standard re Shari'ah Governance for Islamic Financial Institutions. URL: https://rulebook.centralbank.ae

5. Central Bank of the UAE. Higher Shari'ah Authority. – URL: https://www.centralbank.ae

6. Laldin M.A., Furqani H. Islamic Financial Services Act (IFSA) 2013 and the Shari'ah-compliance requirement of the Islamic finance industry in Malaysia // ISRA International Journal of Islamic Finance. – 2018. – Vol. 10, No. 1. – P. 94–101. – DOI: 10.1108/IJIF-12-2017-0052.

7. Oxford Business Group. Malaysia 2014 Report: Regulating success [Elektron manba]. – 2014. – URL: https://oxfordbusinessgroup.com

8. Clifford Chance. The New UAE Banking Law and its impact on Islamic financing in the UAE [Elektron manba]. – 2018. – 22-noyabr. – URL: https://www.cliffordchance.com

9. CMS Law-Now. The new UAE Central Bank law [Elektron manba]. – 2019. – URL: https://cms-lawnow.com

10. KPMG. Uzbekistan: Law introducing Islamic banking enacted [Elektron manba]. – 2026. – 26-may. – URL: https://kpmg.com

11. SpecialEurasia. Uzbekistan Approves the Law on Islamic Finance: Why It Matters? [Elektron manba]. – 2026. – 7-aprel. – URL: https://www.specialeurasia.com

12. Kinstellar. Uzbekistan introduces a legislative framework for Islamic banking [Elektron manba]. – 2026. – Aprel. – URL: https://www.kinstellar.com

13. Kun.uz. Uzbekistan prepares legal framework for Islamic bonds as Islamic banking takes shape [Elektron manba]. – 2026. – 28-oktabr. – URL: https://kun.uz

14. Kun.uz. Islamic financing in Uzbekistan hits UZS 22 billion in early 2026 [Elektron manba]. – 2026. – 16-iyun. – URL: https://kun.uz

15. Times of Central Asia. Uzbekistan Establishes Islamic Finance Council as New Banking Law Takes Effect [Elektron manba]. – 2026. – URL: https://timesca.com .

16. Laws of Malaysia. Central Bank of Malaysia Act 2009 (Act 701), ss. 55–58 [Elektron manba]. – 2009.

17. Allen & Gledhill. Federal Court of Malaysia affirms constitutionality and binding legal effect of rulings by Shariah Advisory Council [Elektron manba]. – 2019. – URL: https://www.allenandgledhill.com/sg/publication/articles/10977/federal-court-of-malaysia-affirms-constitutionality-and-binding-legal-effect-of-rulings-by-shariah-advisory-council .